



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

F A R M O Y I S H I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son Farmoni bilan belgilangan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini, shu jumladan Xalq qabulxonalari tomonidan tashkil etiladigan qabullarni muntazam o‘tkazib borish **maqsadida:**

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyatining 2024-yil II yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullari jadvali tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari tasdiqlangan sayyor qabul jadvaliga muvofiq belgilangan muddatlarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashsin va murojaatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan masalalarning joyida ijobiy hal qilinishi bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rib borsin.

3. Vazirlikning hududiy shu‘balari boshliqlari, tizimidagi inspeksiya, agentlik, aksiyadorlik kompaniya, jamiyat, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

2024-yil II yarim yilligiga mo‘ljallangan sayyor qabullar jadvalini ishlab chiqsin hamda o‘tkizilayotgan sayyor va ommaviy qabullarni natijadorligiga hamda murojaatlarda ko‘tarilgan muammo va masalalarning mazmun-mohiyatiga jiddiy e‘tibor qaratsin;

shaxsan hududiy shu‘balar boshliqlari, korxona tashkilotlarning birinchi rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan kelib tushagan barcha murojaatlarni qanoatlantirish darajasi 80 foizga bajarilishini ta‘minlashga mas‘ulligi belgilab qo‘yilsin;

sayyor qabullar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuniga qadar Vazirlikka ma‘lumot kiritib borsin.

4. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (M.Azimov), Murojaatlar bo‘limi (D.Pulatov), Hududiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi, Axborot xizmati (Sh.Axmatov):

Vazirlikning hududiy shu‘balari bilan birgalikda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo‘yicha sayyor qabullar jadvaliga muvofiq qabullarni belgilangan muddatlarda hududlarning chekka-chekka tumanlarida o‘tkazilishini tashkil etsin;

sayyor qabullar bo‘yicha ma‘lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda har chorak yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib borilishini ta‘minlasin;

respublika hududlarida Vazirlik rahbariyati tomonidan sayyor qabul o‘tkazilishidan 10 kun avval e‘lon berilishi va o‘tkazilgan sayyor qabullar

Vazirlikning veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlarda va ommay axborot vositalarida yoritib borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

Toshkent sh.
2024-yil "15"-iyul
40 -F- son

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vaziri



Sh. Shermatov
2024-yil 15-iyul

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyati tomonidan 2024-yil II yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo‘yicha sayyor qabullar
J A D V A L I

T/r	Vazir, vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari	Lavozimi	Viloyat nomi, sayyor qabul oy					
			iyul	avgust	sentabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	Sh.X.Shermatov	Vazir		Qoraqalpog‘iston Respublikasi				
2	O.A.Pekos	Vazirning birinchi o‘rinbosari						Andijon viloyati
3	O.M.Umarov	Vazirning birinchi o‘rinbosari					Qashqadaryo viloyati	
4	J.T.Maxsudov	Vazir o‘rinbosari	Toshkent viloyati					
5	R.O.Karimjonov	Vazir o‘rinbosari		Toshkent shahar				
6	J.Sh.Egamberdiyev	Vazir maslahatchisi				Namangan viloyati		
7	D.T.Rustamov	Vazir maslahatchisi			Buxoro viloyati			

Izoh: Xizmat zaruriyati tug‘ilgan hollarda sayyor qabul o‘tkazish oylariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.